

Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” asaridagi Manqurt obrazi tahlili.

Urganch davlat univertiteti
Filologiya fakulteti 212-guruh talabasi
Raimbayeva To‘xtajon Azamat qizi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” asaridagi Manqurt obrazi tahlili va muallif bu obraz orqali nimalarni yoritib berganligi to‘g‘risida fikr yuritilgan. Muallif aslida manqurt kim? Bugungi kun manqurtlari kimlar? Jungjanglar orqali kimlar nazarda tutilganligi maqolada yoritilgan.

Kalit so‘zlar: rivoyat, afsona, manqurt, jungjanglar, ona bayit, sho‘ro, savet tatalitar tuzumi, chor mustamlakachiligi, epigraf, obraz, o‘lim lagerlari, mustabid.

Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” asari uning ilk romani hisoblanadi. Bu asar 1980-yilda yozilgan bo‘lib, asarda odamning insoniy qiyofasini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlar: o‘zlikni anglash, o‘zgani tushinish, tarixiy ildizlarni bilish, undan faxrlanish singari tushunchalar ko‘rsatiladi. Chingiz Aytmatov barcha asarlarida o‘z usuli, uslub va tadbirlariga sodiq qoladi: ularda real hayotiy voqealar tasviri bilan turli-tuman rivoyat va afsonalar bir-biriga qo‘shilib-chatishib ketadi. Uning qissalari va romanlarida qirg‘izlar va boshqa turkiy xalqlarning afsonalaridan, folkloridan unumli foydalangani ham umumturkiy adabiyot uchun katta xizmatdir. [Chingiz Aytmatov “Bolaligim”, “Ijod-Press” 2017. 105-bet.] Bu asarda ham “Sario‘zak afsonasi” keltirilgan. Rivoyatga ko‘ra, o‘tgan zamonlarda Sario‘zakni bosib olgan jungjanglar asirga tushgan jangchilarga nisbatan behad shafqatsizlik qilar ekanlar. Ular kezi kelib bunday tutqunlarni qo‘shni o‘lkalarga qul qilib sotib yuborisharkan. Bu esa tutqunning omadi kelgani hisoblanarkan. Chunki sotib yuborilgan qul ertami-kechmi, bir kun o‘z vataniga qochib kelishi mumkin ekan-da. Jungjanglarning qo‘l ostida tutqun bo‘lib qolganlarning esa sho‘ri qurirkan. Ular mahkumning boshiga teri qalpoq tortish yo‘li bilan dahshatli bir tarzda qiynab, uning xotirasini yo‘qotar ekanlar. Odatda, bunday jazoga jangda asir tushgan yosh yigitlar giriftor bo‘lishardi. Avvaliga jungjanglar tutqunning sochini dastlab o‘ngidan, so‘ngra teskarisidan taqir qirib tashlashadi. Sartaroshlik marosimi tugagach, jungjanglarning chapdast qassoblari kattakon bir tuyani so‘yib, terisini shila boshlaydilar. Ular birinchi navbatda, eng qalin va eng og‘ir bo‘lgan bo‘yin terisini ajratib bo‘laklarga bo‘lishar, hovuri chiqib turgan yopishqoq terini shu zahotiy oq hozirda suzuvchilar kiyadigan qalpoqcha singari, tutqunning yangi qirilgan taqir boshiga kiygizib qo‘yishardi. Mana shu – teri qoplash deyiladi. Bunday qiynoqqa duchor etilgan qul yo dahshatli azoblarga bardosh berolmay o‘lib ketar, yo xotirasidan umrbod mahrum etilib, o‘tmishini eslay olmaydigan qulga- manqurtga aylanib qolar edi. Bitta tuyaning bo‘yin terisi besh-oltita qalpoqqa yetadi. Qalpoq qoplangandan so‘ng, halokatga mahkum etilgan har bir qul –qiynalganda boshini yerga tegiza olmasin uchun bo‘yniga yog‘och bo‘yinturuq bog‘lashardi. Shu



alpozda ularni yurakni ezuvchi, quloqni qomatga keltiruvchi behuda dod-faryodlari eshilib qolmasin, deb odamlardan yiroqqa, suvsiz, yemishsiz, kimsasiz yoydoq dalaga , oyoq – qo‘llari bog‘liq holda jazirama oftob tig‘iga eltib tashlar edilar. Bu qiynoqlar bir necha kun davom etardi. Kerakli joylarga soqchilar qalin qo‘yilib, asirlarga qabiladoshlari ularni qutqarishga kelib qolishsa, o‘tkazmaslik uchun chora-tadbir ko‘rib qo‘yilgan edi. Ularni qutqarganda ham bu o‘sha odamning quruq jasadinigina qaytarish degan so‘z edi. Faqat birgina nayman vodiysi – rivoyatlarda Nayman ona nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan ayolgina o‘z o‘g‘lining bu taxlit achchiq qismati bilan murosa qila olmadi. Sario‘zak afsonasi shu haqida. Ona Bayt [Ona Bayt nomidagi ikkinchi so‘z “bayit” ma‘nosini bildiradi, ya‘ni farzand dog‘ida iztirob chekayotdan onaning alamli faryodi, munojotini anglatadi.] Onaizor makoni qabristonining nomi ham shundan kelib chiqqan.

Bu asarda “ Manqurt “ atamasi ilk bor tilga olinadi. Manqurt o‘zining kim ekanini, qaysi urug‘-aymoqdan ekanini, ismini, bolalik kezlarini, ota-onasining kimligini butunlay yoddan chiqargan bo‘lib, o‘zining odamligini ham unutilib yuboradi. U notovon va zabonsiz bir maxluq bo‘lgani uchun ham mutlaqo itoatkor va beozor. Manqurt xuddi it kabi faqat o‘z egasini taniydi. Uning fikri-zikri qorin to‘yg‘azish, shundan boshqa tashvishi yo‘q. Insonning insonlik fazilati, yaratilganda birga yaratilib, o‘lganda yana o‘zi bilan birga ketadigan va boshqa mavjudotlardan yana o‘zi bilan birga ketadigan va boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan birdan bir noyob fazilati- xotirasi, aql-idroki bo‘lsa-yu, uni tag-tomiri bilan yulib olsalar, axir, bu qanday yovuzlik, bedodlik?! Undan ko‘ra tutqunning qalbini poralab, istagancha ziyon-zahmat yetkazib, o‘limga mahkum etishlari yoki bir yo‘la boshidan judo etishlari yuz chandon yaxshi emasmi? O‘zlarining mudhish tarixida xiyonatkor sifatida shuhrat qozongan ko‘chmanchi jungjanglar eng muqaddas narsa – insonning muqaddas insoniylik mohiyatiga ham chang soldilar.

Chingiz Aytmatov manqurt obrazi orqali aslida manqurt kim? bugungi kun manqurtlari kimlar? va asardagi jungjanglar orqali Chingiz Aytmatov kimlarni nazarda tutganligini bilib olamiz. Asarda bu masalalar konkret odamlar taqdiri misolida badiiy ifoda etilgan. Ezgu insoniy tuyg‘ulardan mahrum, odamning ko‘nglini his etmaydigan, bobolar qo‘llagan udumlarni mensimaydigan, kechagi kunidan uzilgan, ammo o‘zini ilg‘or fikrli ziyoli hisoblaydigan Sobitjon Manqurtning zamonaviy va xavfli nusxasi ekanligi ham juda ta‘sirli ko‘rsatilgan. Chingiz Aytmatov bu asarga X asrda yashab o‘tgan arman yozuvchisi Grigor Narekatsining “Musibatnoma “ kitobidan “ Bul kitob jism-u fig‘onimdir mening, Bul kalom jon-u jahonimdir mening “ kabi satrlarini epigraf qilib olinishi ham bejiz emas. Chingiz Aytmatov uchun ham bu roman “ jon-u jahonning o‘zi edi” [Adabiyot.Umum o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf uchun darslik majmua. “Yangiyo‘l Poligraph service” Toshkent 2006.382-bet]Asarda chindan ham yozuvchining fig‘onlari, qalbini o‘rtagan dardlari, alamlari bayon etilgan. Holbuki, bunday xususiyat sho‘ro



adabiyoti uchun tamomila begona hisoblanardi. Yana bir narsani ham unutmashlik kerakki, o'sha davrda xotin-qizlarni eski turmush tarzidan sug'urib olib, yevopacha, ya'ni ruscha turmush tarziga yaqinlashtirish siyosati davom etayotgan va bundayin “ an'anaviy turmushga isyon” qiladigan obraz maqbul hisoblanardi. Chunki yerli musulmon turkiy xalqlar o'z milliy va diniy turmushlaridan, an'analaridan uzoqlashtirilgach, sekin – asta ulardan “ yagona sovet xalqi” yaratish mumkin,- deya hisoblanardi. Yosh muallif ijodining boshlanishida bunday qarashlarga ko'nikkan bo'lsa ham, yillar o'tib, sovet totalitar tuzumining bu kabi g'oyalarga, millatlarni o'zligidan ayiradigan tushunchalar va yo'nalishlarga qattiq qarshilik ko'rsatgani, buni ijodi bilan isbotlagani ma'lum: manqurt obrazi bu fikrimizning yorqin dalilidir. Chor mustamlakachilari Sibir, Kavkaz, Qirim va Turkistonni bosib olib, qonini ichgandi, uning davomchisiga aylangan sovetlar ham ikkinchi jahon urushidan keyin Boltiqbo'yidan uchta respublikani o'z hukmiga bo'ysundirdi, o'sha o'n to'rtta respublika adiblaridan birortasi qilolmagan buyuk qahramonlik ishini Chingiz Aytmatov bajardi: Agarda sovet mustamlakalarida millatlar, tillar yo'qotilib, “yagona sovet xalqi “ yaratilsa, yuz millionlab insonlar manqurtga – tarixini, o'tmishini bilmaydigan, onasini ham tanimaydigan maxluqlarga aylanib qolishini badiiy aks ettirib, nafaqat sovet mamlakatidagi qaram respublikalar ommasini, balki butun dunyodagi ana shunday zulmga mahkum jamiyatlarni larzaga soldi. Bunday umumbashariy fojiani fosh qilish, Nobel mukofoti berilgan birorta yozuvchining qo'lidan kelmagan, Chingiz Aytmatovning ulardan farqi va o'ziga xos buyuk adib ekanligi ana shundadir deb o'ylayman. Biz sho'ro davri“ yagona sovet xalqi “ siyosatini yaqindan, uning chirkinliklari, insonlarni erkidan judo qilganliklarini Shukrulloning o'z hayoti haqida yozilgan “ Kafansiz ko'milganlar “ asaridan ham ko'rishimiz mumkin. Bu asarda insonlarni manqurtga aylantirishga bo'lgan harakatlarni ko'rishimiz mumkin. Bunga misol birgina jazo muddatini o'taydigan o'lim lagerlaridagi holat “ Seni kimliging bugundan boshlab yelkangga yozilgan raqam bilan yuritiladi, bu seni inson nomi bilan atashga ham munosib ko'rmaslik, odam qatoridan chiqarilganiga ishora edi. Kiyim – kechaklar yamog'iga chidash mumkin, chidaysan, ammo sening insonliging, sening qalbingga bosilgan haqorat tamg'asini ko'tarish, unga chidash!...” shu jumladan insonning insoniyligiga tajovuzni ko'rishimiz mumkin. Bu o'lim lagerlarida insonning qadri it o'ligichalik ham qadri bo'lmasligini, qanchadan qancha ziyoli insonlarning eng chirkin ishlarga majburlashganligini ko'rishimiz mumkin. Bu harakatlardan maqsad davlat tepasidagilar Turkistonni ziyolilardan tozalash shunday qilibgina xalqni ongli bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va xalq xuddi manqurt kabi o'z egasinigina tanishi uning buyruqlarining so'zsiz bajarishi, o'z huquqlarini hech qachon talab qilmasliklari ko'zda tutilgan. Bu siyosat natijasida qanchadan qancha ziyolilar Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromovdek adabiyotimizning zabardast vaqillari xalqdan uzoq tutishgan, itga qilinadigan munosabatni ham ko'p bilishgan, kafandan ham benasib otib

tashlashgan. Bunga birgina sabab ular xalqni ongli bo‘lishga, o‘z haq-huquqini talab qilishga undashi mumkin edi. Ular xalqni manqurtdek bo‘lishni istashdilar. Bu harakatga tabiiyki ziyoli qatlam ularga to‘siq bo‘lardi. Chingiz Aytmatov ham asarida manqurt obrazi orqali xalqning fig‘onlarini, dard–u alamlarini ko‘rsatadi. Chor hukumati ham, sovetlar ham bu voqealarni tarixga ko‘mib keldi, musulmonlarni yuz minglarcha inson suyagi qalashib yotgan daralarga o‘tkazmadi. Nihoyat, oradan yuz yil o‘tib, u gunohsiz ajdodlarning qonli qismati eslandi, mustabidlarga la‘natlar yog‘dirildi. Bu – mustaqil davlatning vijdonli insonlari tomonidan amalga oshirildi. Adib dardining ma‘lum bir qismini sho‘ro turmushidagi ayrim ijtimoiy nuqsonlarni ochgan asarlarida, xususan, dinsiz va millatsiz tuzum qurish uchun, kurashayotgan sho‘ro boshqaruv tizimining vahshiyona siyosatini fosh etgan, tarixiy xotirasidan ayrilgan katta-kichik xalqlarning onasini ham tanimaydigan manqurtga aylanishini ko‘rsatib bergan romanlarida to‘ka oladi. Dunyoni titratgan, sovetlarning bosh siyosatidagi manfur yo‘nalishni badiiy obrazlar, matndagi falsafiy ishoralar orqali ochib bergan bu asarni chorlik va sovet imperializmi zulmini chekkan boshqa biror millat vakili emas, bizning Chingiz Aytmatov yozgani o‘shanda bo‘lganidek, bugunda ham barcha turkiy xalqlarni g‘ururlantiradi.

Haqiqatdan ham, adib yaratgan ko‘plab adabiy qahramonlar bashariyat bilan birga abadiyatga tomon doim yo‘lda: Chingiz Aytmatov ham ularning yonida, u ham bir mangulik yo‘lchisi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Chingiz Aytmatov “ Asrni qaritgan kun “ roman. “ Ilm-ziyo-zakovat” Toshkent – 2020.
- 2.Chingiz Aytmatov “ Bolaligim “ qissa.” Ijod-press” Toshkent -2017.
3. Shukrullo “ Kafansiz ko‘milganlar “ roman.” Adabiyot uchqunlari” Toshkent – 2018.
- 4.Adabiyot. Umum o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf uchun darslik-majmua. “Yangiyo‘l Poligraph service” Toshkent-2006.